

SPECIFIC PEDAGOGICAL ASPECTS OF LEGAL CULTURE.

Usmanova Hafiza Kadyrjanovna Kokand State Pedagogical Institute, the theory of education and upbringing Master of preschool education 2nd stage
Scientific adviser: associate professor **H.Usmanova**

Annotation: The purpose of this article is to study the legal requirements of the methodology of teaching legal sciences and the specific pedagogical aspects of legal culture. about the formation of a relationship to the unit.

Keywords: Scientific pedagogy, skills, qualifications, legal culture, forms of teaching.

HUQUQIY MADANYATNING O'ZIGA HOS PEDAGOGIK JIHATLARI.

Usmonova Hafiza Qodirjanovna Qo'qon davlat pedagogika instituti, ta'lim va tarbiya nazaryasi maktabgacha ta'lim 2- bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent **X.Usmonova**

Annatatsiya: Ushbu maqola huquq fanlarini o'qitish metodikasi fanining vazifasi - talablari va Huquqiy madaniyatning o'ziga hos pedagogik jihatlari ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim jarayoning samaradorligini oshirish, zamon talablari, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida huquq fanlarini o'qitishga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishdan iboratligi haqida.

Kalit so'zlar: Ilmiy pedagogik, ko'nikma, malaka, huquqiy madaniyat, o'qitish shakllari.

Huquq fanlarini o'qitish metodikasi fanini o'qitishdan maqsad: Huquq o'qitish metodikasi fanini o'qitishdan maqsad talabalarda Huquqshunoslik, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi fanlarini o'rgatish uchun zarur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir. Huquq o'qitish metodikasi fanini ilmiy pedagogik fan bo'lib, yosh avlodning huquqiy bilimlari samaradorligini oshirish, huquqiy madaniyatini shakllantirish maqsadida Huquqshunoslik, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquq fanlarini o'qitish jarayonini tadqiq etadi. Shuningdek, Huquq ta'limini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, metodlari, vositalari, dars va uning turlari va tuzilishini o'rgatish, huquq bilimlarni odamlar ongiga singdirish va uni e'tiqodga aylantirishning samarali usullarini ishlab chiqish fanning maqsadidir.

Huquq fanlarini o'qitish metodikasi fanini o'qitishdan maqsad– umumta'lim va o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimida o'qitiladigan huquq fanlarining maqsadini, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini, o'quvchilarga huquqshunoslikdan puxta bilim berish; o'quvchilarni huquqiy ongli, savodli va huquqiy madaniyatli, qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda huquq ta'limini o'qitishning eng muhim vositalarini belgilashga mos bilim, ko'nikma va shakllantirishdir.

Huquq fanlarini o'qitish metodikasi fanining vazifasi - talabalar ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim jarayoning samaradorligini oshirish, zamon talablari, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida huquq fanlarini o'qitishga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishdan iborat.

Huquqiy ta'lim, uning tarkibiy qismlari, o'qitish shakllari, usul va uslublari, huquqiy ta'lim modeli, uning bosqichlari, o'quv Dasturi, o'quv rejasi, kalendar reja, tematik reja, dars, mashg'ulotlar, mustaqil ish, ko'rgazmali vositalar, reyting tizimi to'g'risidagi bilimlar vositasida talabalarda axloqiy, huquqiy bilim, ko'nikma, malaka va odatlarni shakllantirish - huquqiy madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Huquq o'qitish metodikasi fani talabalarda huquq fanlarini o'qitish uchun zaruriy bilimlar berish, olingan bilimni hayotga tadbiq etish mahoratini egallash, o'zi ustida ishlash, izlanish, ko'nikma va malakalarini qo'llay olishlari uchun mo'ljallangan. Shuningdek:

- Talabalarga maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'qitiladigan huquq fanlarini o'qitish metodlarini o'rgatish;
- o'quvchilar ongida milliy g'oya va mafkurani, yuksak ma'naviyatni va huquqiy madaniyatni shakllantirish;
- talabalarning olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash metodlarini o'rgatish;
- huquq ta'limi bo'yicha darsni tashkil etish, dars va uni turlarini ajratish, darsda turli xil manbalardan, vositalardan foydalanish usullarini o'rgatish asosiy vazifa hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy huquq fani yuqorida ko'rsatilgan ko'pgina boshqa tushunchalarga asoslanib, O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy normalarni, huquqiy institutlarni, xalq hokimiyatchiligi, davlat shakli, davlat organlari tizimi, fuqarolikka oid tushunchalar xususiyatini konkret tarzda ochib beradi. Huquq o'qitish metodikasi fani Konstitutsiyaviy huquq fanining asosiy mavzularini o'qitishni o'rgatadi va shu bilan birga olingan bilimlar yuzasidan xulosalar chiqaradi, talabalarga tahlil qilishni, yangi faktlarni, bilimlarni o'zlashtirishni, izlanishga, qonuniy hujjatlar ustida yanada ko'proq ishlashni o'rgatadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Z.M.Gaffarov, O.A.Karimova "Правового воспитания и обучения" Toshkent "O'qituvchi" 1996-yil
- 2 O.A.Karimova "Huquqiy tarbiya metodikasi" Toshkent TDPU 2001-'yil
- 3.O.A. Karimova "Huquqiy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari" Toshkent "O'zbekiston" 1999-y
- 4.O.A.Karimova, M.Davletova, N.Akaeva "Huquqiy o'qitish metodikasi" (metodik qo'llanma) Toshkent 2001-yil
- 5.N.N.Azizxo'djaev "Pedagogika texnologiya va pedagogik mahorat " Toshkent 2003-yil
- 6.U.Tolipov,M.Usmonboyewa" Pedagogik texnologiya ,nazariya va amaliyot" T.2006-y.